

“IQTISODIY TAHLIL FANINING AHAMIYATI VA ASOSIY TAMOILLARI”

Xusanova Gulchehra Rahmatjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti Buxgalteriya hisobi fakulteti "Moliyaviy tahlil" kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiy tahlil asosiy tamoyillari, iqtisodiyotning muhim konseptlari va odatlari asosida shakllangan vaqt davomida o'zgarishlarni tushunish va boshqarishga yordam beradigan tahliliy modellar va nazariyalar to'g'risidagi umumiy qarashlardir. Bu tamoyillar, iqtisodiyotning bir nechta muhim jihatlarini ifodalaydigan va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga yordam beradigan asosiy konseptlardir.

Kalit so'zlar: tamoyil, prinsip, xo'jalik yurituvchi subyekt.

Iqtisodiy tahlil, iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar resurslar (masalan, pul, ishchi kuchlari, vaqt) o'rtasida sodiq aloqani, moliyaviy tizimlarni (masalan, soliq tizimlari) va iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy tahlil o'qituvchilarni iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ulardagi o'zgarishlarni tahlil qilish, tahlil natijalarini tushuntirish va o'rganilgan ma'lumotlarni ta'lim olish uchun ishlab chiqarishda yordam beradi. Iqtisodiy tahlil iqtisodiy resurslar va moliyaviy tizimlarni o'rganish va o'zgarishlarni tahlil qilishda yordam beradi. Bu moliyaviy tahlil orqali iqtisodiy tizimlarning faoliyatini yaxshi tahlil qilish, ishlab chiqarish, ehtiyot xarajatlar, tijorat, soliqlar va boshqa moliyaviy jarayonlarni o'rganish va boshqarishni o'rgangan

Ma'lumki, analitik tadqiqotlar, uning natijalari va ulardan ishlab chiqarishni boshqarishda foydalanish ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bu talablar analitik tadqiqotlarni o'tkazishga o'z ta'sirini ko'rsatadi albatta. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish, o'tkazish va uning natijalarini amalda foydalanishda ularga qat'iy rioya qilinishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonning asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes reja tuzish korxonada faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Iqtisodiy tahlil o'quvchilarga iqtisodiy jarayonlardan olingan statistic ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda foydalanish imkoniyatini

beradi. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari o'zgaraydigan vaqtning faniga qarab o'zgarishi mumkin. Bu vazifalar iqtisodiy nazariyadan amaliy iqtisodiy tahlilning amaliyoti va iqtisodiy siyosatning rivojlanishiga yordam berigan bir qator asosiy ashyolar hisoblanadi.

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq qilish obyekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan obyektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani obyektlarni obyektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yaqqol ko'rsatib berish, kamchiliklarini ochib tashlashdan, korxonaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga baho berish va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish aylanmasiga jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Bular esa, o'z navbatida mazkur fanni o'rganishni o'ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Har bir fanning vazifasi iqtisodiy shart-sharoitga qarab belgilanib boriladi, lekin u oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va keng hal etish uchun qator uslublarni qo'llaydi. Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

1) biznes-rejaning qanchalik realligi (mavjudligi) va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish;

2) iqtisodiyotni rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash;

3) biznes-rejasining bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash;

4) ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash (bu o'rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarni butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi);

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanining predmeti, xo'jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbaida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi (sistemi) orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiy tahlil umumqabul qilingan tamoyillarga qat'iy asoslanishi lozim. Korxonalarining xo'jalik faoliyati tahlilida tamoyillar bilimning turli jabhalari uchun qo'llaniladi: obyektivlik, ilmiylik, tizimlilik, aniqlik, komplekslilik, muntazamlilik, taqqoslanuvchanlik. Ixtiyoriy darajadagi xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda ularga

asoslanish talab qilinadi. Obyektivlik tamoyili tadqiq etilayotgan hodisa, vaziyat, jarayonlar tekshirilgan va ishonchli iqtisodiy axborotlar tizimida ifodalangan obyektiv voqelikni aks ettirishi lozim.

Ilmiylik tamoyili tahlil o'tkazishda ilmiy asoslangan metodika va tartiblarga tayanish lozimligini anglatadi.

Tizimlilik tamoyili - tadqiq etilayotgan jarayonlar, iqtisodiy hodisalar, xo'jalik operatsiyalari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda, yagona tizimda o'rganilishini anglatadi.

Aniqlik tamoyili o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar konkret real ma'lumotlarga asoslanishi lozim, natijalar esa aniq analitik hisob-kitoblarga asoslanadi.

Komplekslilik tamoyili tizimli tahlilning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va butun va uning qismlariga dialektik yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi. Tahlil va sintez birligi haqida mulohazalarga tayangan holda hodisa va jarayonlarning barcha jihatlarini ichki aloqadorlikda hamda omillar ta'sirida o'rganish asosida xo'jalik faoliyati haqida aniq bilimlarga ega bo'lish va uni to'g'ri baholash mumkin. Demak, kompleks yondashuv faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olish, korxonalar iqtisodiyotidagi sabab bog'lanishlarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

Muntazamlik tamoyili hodisadan hodisagacha emas, balki oldindan belgilangan vaqt oralig'ida doimiy ravishda, uzluksiz tahlil olib borilishini talab qiladi.

Tahlil (uni xo'jalik faoliyatiga bog'lansadan va mustaqil fan sifatida ajratmay) azaldan mavjud va insoniyatning jami ilmiy va amaliy faoliyati asosida yotuvchi ancha keng tushuncha hisoblanadi. Tahlil obyekt va hodisalarni qismlarga ajratib o'rganish jarayonini o'zida aks ettiradi. Tahlilga teskari jarayon sifatida sintez namoyon bo'lib, u bilan tahlil ko'pincha amaliy yoki bilish faoliyatida uyg'unlashadi. O'rganilayotgan obyekt turi, uning strukturasi murakkabligi, o'rganilayotgan jarayonning mavhumlik darajasi va ularni amalga oshirish usullariga bog'liq ravishda tahlil turli shakllarda namoyon bo'ladi, jumladan ko'pincha ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar(kimyoviy tahlil, matematik tahlil, biologik tahlil, iqtisodiy tahlil)da tadqiqot so'zining sinonimi hisoblanadi.

Amaliy iqtisodiy fanlar tizimida markaziy o'rinni egallovchi iqtisodiy tahlil bevosita xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qator o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo'lishini o'rganish, korxonalarining aniq sharoitida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning qonuniyatlari hamda tendensiyalarini aniqlash, ularni tadqiq qilish asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi. Masalan, talab va taklif qonuniyati. Talab o'ta harakatchan va o'zgaruvchan, chunki uning miqdori va dinamikasiga ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tuzdagi ko'p sonli omillar ta'sir qiladi. Tovarga talabning o'zgarishiga, misol tariqasida olsak, reklamadan foydalanish, moda, afzal ko'rish, atrof- muhit, did, tovarlar hammabopligi, daromadlar miqdori, buyum foydaliligi, o'rnini bosuvchi tovarlar uchun narxlar, aholi soni o'zgarishi ta'sir etishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil real foyda keltirganda o'zini oqlaydi. Iqtisodiy tahlilning haqiqiy nafi ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida foydalanilmagan zaxiralarni aniqlashdan ham iborat. Iqtisodiy tahlilning muhim funksiyalaridan biri - resurslardan samarali foydalanishdagi foydalanilmagan zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda fan va amaliyot yutuqlari, ilg'or tajribalar o'rganilishini

hisobga olgan holda korxonani muvaffaqiyatli rivojlantirish va daromadlilik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarish tizimining muhim elementi hisoblanadi, undan investitsion loyihalarni baholashda oldindan prognozlash varianti sifatida; moliyaviy shart-sharoit va natijalarni prognozlash instrumenti sifatida; ishlab chiqarishni boshqarishdagi joriy muammolarni aniqlash; har bir faoliyat yuritayotgan obyektga tegishli ichki zaxiralarni aniqlash, korxonaning moliyaviy ahvolini baholash maqsadida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: «NORMA», 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni, 1991-yil 15-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, 1996-yil 30-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni, 2000-yil 26-may.
5. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». /Darslik. -T.: Sharq, 2005.
6. "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" /Darslik: N.F.Ishonqulov va boshq. -T.: «Sanostandart», 2014-yil. 336 b.